

HUQUQBUZARLIK VA JAVOBGARLIK ASOSLARI

Ravshanov Doston

Berdaq nomidagi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Yuridika fakulteti 1- bosqich talabasi

+998906703950

Annotatsiya: Mening ushbu maqolamda huquqbazarlikka kengroq ta'rif berib o'tilgan, ya'ni ushbu huquqbazarlik va javobgarlik asoslari deb nomlangan maqolam shundan iboratki, huquqbazarlik nima ekanligi, uning qanday sodir etilishi, nima uchun sodir etilishi va uning javobgarliklari haqida keltirib o'tganman. Shuning bilan birga, huquqbazarlik uchun tarixga ham bir nazar tashlab o'tilganligini va huquqbazarlikning har bir yo'naliishi va turlari bo'yicha ham qisqacha tasnif keltirib ketilgan. Ushbu maqolada huquqbazarlik nima ekanligi va huquqni buzilishi qanday oqibatlarga olib kelishi haqida kengroq tushunib olishingiz mumkin.

Kalit so'z: huquq, huquqbazarlik, javobgarlik, jinoyat, jazo, fuqarolik, jinoiy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik, qonun, jamiyat, davlat organlari, intizomiy huquqbazarlik.

Huquq haqida gap ketganida, avvalambor huquq nima degan savolga qisqacha tasnif berib o'tsam. Demak, huquq nima ekanligiga ta'rif beradigan bo'lsak, huquq bu davlat tomonidan o'rnatilgan bo'lib, davlat tomonidan muhofaza qilinadigan ijtimoiy normalar tuzimi deb bilamiz. Huquq va uning turlari, huquq buzilganda yoki huquqbazarlik sodir etilgandan so'ng kelib chiqadigan javobgarlik qoidalarini birma-bir o'rganib, uni chuqurroq mazmun-mohiyatini bilib olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Huquq davlat tomonidan o'rnatilgandan so'ng, u ushbu davlat va uning fuqarolari uchun majburiy sanaladi. Bundan tashqari, har bir sodir etilgan huquqbazarlik uchun qonun bilan tasdiqlangan manbalarga ko'ra, javobgarlik va jazolari belgilab qo'yilgan. Endi, huquq hayotimizga nima uchun kerakligi haqida gap ketsa, biz aytishimiz mumkinki, har kuni va har sohada ko'rinish turganidek, biz turli-tuman mayda huquqbazarliklarni hayotimiz davomida uchratishimiz mumkin. Masalan o'g'irlik, haqorat qilish, bir shaxs boshqa shaxsga nisbatan tuxmat qilishi va boshqalar misolida ko'rishimiz mumkin. Keling, tarixga ham bir nazar tashlaymiz, ya'ni "Xamurappi qonunlari" yoki "Drakon qonunlari" va yana shu kabi qonunlar to'plamlarini keltirib, tarixda ham huquq namoyon bo'lganligi haqida bilishimiz mumkin. Bu manbalarga ko'ra, katta davlatlar paydo bo'lgach, huquq ham birga paydo bo'lganligini, unga barcha fuqarolarning bo'ysunishlari va ular sodir etgan jinoyatlar uchun jazolar tayinlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Demak, tarixda ham huquq va qonunlarga nisbatan qo'llanilgan jazolar mavjud bo'lgan, biroq bularning qattiqlik darajasi hozirda qo'llanilayotgan jazolardan ko'ra 2 yoki 3 barobar qattiqroq qo'llanilgan deyishimiz mumkin. Misol uchun shifokor amalga oshirgan jarrohlik muolajasi natijasida bemor bevaqt vafot etsa,

shifokorning qo'llari kesib tashlanishi shart bo'lgan. Quruvchi qurgan uy to'satdan qulab, biror kishini bosib qolsa, u qatl etilishi qayd qilingan. Yong'in mahalida

o'g'rilik ustida qo'lga tushgan kimsa o'sha zahoti olovga otilgan. Qulfbuzar o'g'ri ham qattiq jazoga mahkum etilgan.

Endi e'tiborimizni tortadigan narsa bu huquqbazarlik, ya'ni bu o'zi nimaligi va qanday sodir etilishi, uning turlari haqida bilib olishimiz zarur sanaladi. Demak, huquqbazarlik bu ma'lum hududda yashovchi shaxslarning shu davlatning huquqiy normalari va huquqiy qoidalariiga amal qiladi. Agarda bu qoidalarga amal qilmaslik va ularni buzilishi huquqbazarlikni keltirib chiqaradi. Huquqbazarlik jamiyatda o'rnatilgan va qonunchilik orqali belgilangan tartib qoidalarning buzilishi deb tushunishimiz mumkin. Huquqbazarlikni biz turli xil shakkarda ko'rishimiz mumkin va bu huquqbazarlikning xususiyatlari deyiladi. Misol uchun:jinoyat, nojo'yo xatti-harakat, qonun-qoidalarni buzilishi kabilalar kiritishimiz mumkin.

Manbalarga qaraydigan bo'lsak, huquqbazarlikning belgilari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilar: ijtimoiy xavflilik, huquqqa zidlik, ayblilik, va jazoga loyiqlik kabilarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy xavflilik shundan iboratki, bunda huquqbazarlik jamiyatning qadriyatlariga tajovuz qiladi, xususiy va ijtimoiy manfaatlarni yakson qiladi. Huquqbazarlikning zararligi yoki xavfliligi shundan iboratki, u jamiyat hayotiga salbiy ta'sir etadi.

Huquqqa zidlik- bu huquqbazarlikning ikkinchi belgisi hisoblanib, huquqbazar huquqiy normalarida belgilab qo'yilgan taqiqni buzishi va majburiy belgilab qo'yilgan talablarni bajarilmasligini huquqqa zidlik deyishimiz mumkin.

Ayblilik buni huquqbazarlikni uchinchi belgisi sifatida keltiradigan bo'lsak, bunda shaxs o'z xatti-harakatlaridan kelib chiqqan holda va unga javob bera oladigan holatda qonunga zid tarzda kelib chiqadigan qilimish ayblilik hisoblanadi. Bu odatga ko'ra ikki xil, ya'ni qasddan va extiyotsizlik oqibatida sodir etiladi.

Huquqbazarlikning to'rtinchi belgisi – jazoga loyiqlik hisoblanadi. Huquqbazarlik sodir etgan shaxs ma'lum vakolatlarga ega bo'lgan davlat organlari tomonidan javobgarlikka tortilishi va ushbu huquqbuzarga nisbatan qo'llanilishi kerak bo'lgan jazo va muayyan huquqdan mahrum etilishi ham mumkin. Lekin ba'zi hollarda shaxs qonunga binoan javobgarlikdan ozod etilishi ham mumkin va bu vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Huquqbazarlik sodir etgan shaxslarni yoshiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Har bir jinoyat uchun aqli raso jismoniy shaxs, ya'ni o'n olti yoshga to'lgan fuqarolarga nisbatan deb belgilangan va shu yoshdagilar javobgarlikka tortishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Huquqbazarlik qonunchilik sohalariga qarab turlarini ham keltirishimiz mumkin. Ushbu turlarga quyidagilarni keltiramiz:

-Intizomiy huquqbazarlik bu xizmat vazifasini bajarib turgan vaqtida majburiy hisoblangan va hamma bajarishi shart bo'lgan tartib qoidalarning va rahbarlikka bo'ysunish tamoyillarini buzilishi hisoblanadi. Masalan: ish yoki o'qishga kech qolish yoki sababsiz holatda kelmaslik va boshqa holatlarni misol qilib olsak bo'ladi.

-Fuqarolik huquqbazarlik bu insonlarning mulkiga yoki shaxsiga qarshi qonunchilikda harakat yoki harakatsizlik natijasida sodir etiladigan jarayon deb olishimiz mumkin. Masalan:

bir shaxsdan qarz olib, uni vaqtida qaytarmaslik; shartnomalarni, majburiyatlarni bajarmaslik va boshqalar.

-Ma'muriy huquqbazarlik esa qonunchikka binoan ma'muriy javobgarlikka tortishga asos bo'la oladigan, fuqarolarga va tabiiy muhitga nisbatan qasddan yoki ehtiyoitsizlikdan sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik. Masalan, mayda bezorilik; yo'l harakati va transport vositalaridan foydalanish qoidalari; harbiy va pasportni ro'yxatdan o'tkazish qoidalari; elektr energiyasidan foydalanish qoidalari buzish, atrof-muhitni, tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish sohasidagi huquqbazarliklarni olish mumkin.

-Jinoiy huquqbazarlik huquq tizimining katta bir tarmoqlaridan biri hisoblanib, davlat hokimiyati tomonidan o'rnatilgan va qonun bilan himoyalananadigan huquq. Masalan: o'g'irlilik, talonchlilik, tovlamachililik, odam o'ldirish va boshqa jinoyatlarni misol qilib olamiz.

Bundan tashqari huquqbazarlikni mazmunini chuqurroq o'rganishimiz uchun huquqbazarlik subyekti va obyektini farqini bilib olishimiz lozim. Endi ularga ta'rif beradigan bo'lsak, huquqbazarlikni subyekti ushbu huquqbazarlikni sodir etgan jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi. Bu subyektlarning xususiyati mavjud bo'ladi va bular jinoiy va ma'muriy javobgarlikda belgilab beriladi. Huquqbazarlikni obyekti deb esa jamiyatda huquq bilan tartibga solinadigan va muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Agar biz ijtimoiy munosabatlar nima ekanligiga to'xtaladigan bo'lsak, odamlar o'rtasida sodir bo'ladigan ya'ni o'z xatti-harakatlari javob berishi majburiyligi va ularning bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarini biz ijtimoiy munosabatlar deb atashimiz mumkin.

Huquqbazarlik haqida yuqorida ma'lumot berildi, endi biz ushbu huquqbazarliklar sodir etilganda keltirib chiqaradigan javobgarliklar haqida to'xtalib o'tsak. Demak yuqorida aytilgandek huquqbazarlikning har bir turi uchun o'zining belgilangan jazolarning me'yorlari va qoidalari mavjud. Masalan: jinoiy huquqbazarlik, fuqarolik huquqbazarlik va ma'muriy huquqbazarlikka ajratadigan bo'lsak, har biri uchun javobgarlik keltirib o'tilgan.

Ma'muriy javobgarlik bu ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiyadolat va qonuniylikni ta'minlashni, ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqilishini, shuningdek bunday huquqbazarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ushbu qonun orqali fuqarolarga eng kamida jarimaga tortishga asos bo'ladigan javobgarliklarga tortiladi va ijro qilinadi. Javobgarlikni bu turiga ko'ra fuqarolarga nisbatan jarimaga, haqini to'lash sharti bilan buyumni olib qo'yishga buyumni musodara qilishga, maxsus huquqdan mahrum qilishga, 3 sutkadan 15 sutkagacha, ayrim hollarda 30 sutkagacha ma'muriy qamoq bilan javobgarlikka tortiladi.

Ma'muriy javobgarlikga tortilganlar sudlangan hisoblanmaydilar, ma'muriy jazo choralar yengil va muddati qisqaroq belgilanadi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga binoan fuqarolarga nisbatan javobgarlik qo'llaniladi.

Jinoiy javobgarlik esa bu Jinoyat kodeksida belgilangan vazifalari bo'lib, bular shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek jinoyatlarning

oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Jinoyat kodeksiga qilgan shaxslarga nisbatan jarima, muayyan huquqdan mahrum etish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish va umrbod ozodlikdan mahrum qilish kabi javobgarliklarga tortishga asos bo’ladi.

Jinoiy javobgarlik aybdorga nisbatan jazolash tartibidagi davlat majburlov chorasini qo’llashdan iboratdir. Ya’ni, jinoiy javobgarlik ma’muriy javobgarlik kabi oddiyroq jazolarga nisbatan qo’llanmaydi, uning javobgarlik darajasi kuchliroq hisoblanadi va shu bilan birga unda belgilangan jazolarga ko’ra jarimadan toki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazolarigacha belgilanishi mumkin. Albatta jinoiy javobgarlikdan so’ng, shaxsga nisbatan sudlangan fuqaro sifatida belgilab qo’yiladi.

Bulardan tashqari intizomiy va fuqarolik javobgarliklar mavjud bo’lib, intizomiyga ko’ra hayfsanga, o’rtacha oylikning ish haqqining o’ttiz foizdan ortiq bo’lmagan miqdorda jarimaga, mehnat shartnomasini bekor qilishga doir javobgarliklarni o’z ichiga oladi, fuqarolik esa shaxslarning to’liq moddiy va ma’naviy javob berishi hisoblanadi. O’zbekiston davlatida shu qonunlar bo’yicha javobgarlikka tortiladi va ijro etiladi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, huquqbazarlik hamma davlatda mavjud bo’ladi, biroq u uchun kelib chiqadigan javobgarliklar orqali bir davlat boshqa

biror-bir davlatlardagi qonun bilan farq qilib turadi, desam mubolag’a bo’lmaydi. Har bir huquqbazarlikning ahamiyati uning qanday holatda bajarilganligiga qarab javobgarlik ham belgilanadi. Huquqbazarlik qonun kuchi bilan aniqlanadi, chunki uning uchun albatta qonuniy tarzda jazo qo’llanilishi shart. Shuni unutmasligimiz lozimki, har bir shaxs o’zi bilmagan holatda ham sodir etgan huquqbazarlik uchun ham albatta qonun oldida javob beradi va bu orqali hech qanaqa manfaat topib bo’lmaydi. Albatta buning oxiri javobgarlik va jazoga taqaladi. Shuning uchun har bir fuqaro o’zi yashayotgan davlat qonunlari haqida xabardor bo’lishi lozim, deb o’ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksi,1994
2. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat to’g’risidagi kodeksi, 1994
3. O’zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, 2023
4. Karimova.O, Ismatova.N, Sariqov.Sh, Amanova.O.” Davlat va huquq asoslari” 8 sinf darslik. T.:“Huquq va Jamiyat” nashriyoti.:2019.126-128-b
5. <https://uz.wikipedia.org>